SAROYMULKXONIM- TARIX SAHNASIDAGI O'ZBEK AYOLI

Yuldasheva O'g'iloy Yusufjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instuti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.10800094

Annotatsiya
Saroymulkxonim nomi tilga olinganida ko'z o'ngimizda bir tomondan buyuk Amir Temurning jufti xaloli gavdalansa, ikkinchi tomondan davlat va jamiyat ishlarida arboblik darajasiga yuksalgan, har qanday erkak siyosatiga xavas qiladigan tadbirkor ayol timsoli gavdalanadi. Ushbu maqola asosan Saroymukxonim hayotini yortib beradi. Uning 14 yoshga to'lganida amr Husayin nikohiga olishi va 1370-yilda Amir Temur jangda amr Husayinni yengach Saroymulkxonimni o'z nikohiga olishi shundan so'ng uning saroydagi hayoti haqida so'z boradi.

Абстрактный
При упоминании имени Сараймулханым в наших глазах, с одной стороны, воплощается жена великого Амира Темура, с другой стороны, образ деловой женщины, поднявшейся на уровень лидерства в государственных и общественных делах, жаждет воплощения политики любого человека. В этой статье в основном освещается жизнь Сараймухонима. Она вышла замуж за Амра Хусейна, когда ей было 14 лет, и в 1370 году, когда Амир Темур победил Амра Хусейна в бою, он взял Сараймулханым в жены.

Abstract
When Saraymulkhanim's name is mentioned, on the one hand, the wife of the great Amir Temur is embodied in our eyes, on the other hand, the image of a business woman who has risen to the level of leadership in state and community affairs, and is eager for any man's policy is embodied. This article mainly covers Saraymukhonim's life. Her marriage to Amr Husayn when she was 14 years old and in 1370, when Amir Temur defeated Amr Husayn in battle, he took Saraymulkhanim as his wife.

Kalit so'zlar: katta xonim, ko'ragon,Temurnoma, Bayonqulixon., Shoh malik
Ключевые слова: большая леди, Корагон, Темурнама, Байонгулихан, Шах Малик.
Key words: big lady, Koragon, Temurnama, Bayonqulikhan., Shah Malik

Mavjud barcha adabiyotlarda Saroymulkxonimning tug'ilgan sanasi 1341-yil deb etirof etiladi. Bundan tashqari Abdurrazoq Samarqandiyning Qozon sultoni o'limi yuz bergan vaqtda yani, 1347 -yilda uning qizi Saroymukxonim 5 yoshda ekanligiga guvohligini asos qilib olamiz. Shundan so'ng Saroymulkxonim balog'atga yetgach 1355-yilda amr Husayin uni o'z nikohiga oladi. 1370-yil Amir

Temur amr Husayinni jangda mag'lub etganidan so'ng amr Husayinning haramidagi malikalari orasidan Qozog'onning nabirasi Saroymulkxonim , Bayon Sulduzining qizi Ulus Og'ani , Xizir Yasuriyning qizi Islom Og'ani hamda Tag'oy Turkon xotunni o'z nikohiga oladi. Amir Temur Saroymulkxonimni o'z nikohiga olgach u "ko'ragon" uunvoniga musharaf bo'ladi.

Temurchilarning takidlashicha Amir Temurning Saroymulkxonimga uylanishida siyosiy Mo'jal borligini takidlab o'tishadi. Yani Chingiziy xonadon vakili Qozon sultoniga kuyov tutunish orqali " Chig'atoy ulusiga" o'zini munosib deb topish demakdir. Lekin shuni aytib o'tish lozimki Amir Temur va Saroymulkxonim o'rtasida o'zgacha iliqlik ham mavjud edi. Buni biz Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma ' asarida Amir Temur Saroymulkxonim bilan shaxmat o'yini o'ynaganini va Amir Temur o'shandayoq Saroymulkxonimga oshiq bo'lganligi aytiladi.

Amir Temur Saroymulkxonimga uylanganda haramda boshqa xotunlar ham bor edi, lekin Saroymulkxonim xon avlodidan bo'lgani uchun unga katta xonim yani "Bibixonim" unvoniga sazovor bo'ladi. Albatta bu nomga sazovor bo'lish uchun yuksak aqil, did-farosat va taffakur, keng dunyoqarash , fikirlash doirasining ulkanligi bosh omil hisoblanadi. Xususan tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Saroymulkxonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli , tadbirkor, husun -latofat bobida benazir edi deya tariflanadi. Saroymulkxonim ilm-marifatga alohida etibor bergan ayniqsa u ko'plab tolibi ilmlarga homiylik qilgan. Amir Temur Saroymulkxonimga opshkora bo'ysinmasada uning oqilona maslahatlariga doim ehtiyoj sezgan. Saroymulkxonim Amir Temurning ko'plab safarlarida birga bo'lgan. Naqil qilishlaricha , Cuchun ozuqa qolmaganida Amir Temur Samarqandga maktub yo'llaydi Maktub qisqa bo'lib, u Saroymulkxonimga edi. Maktubda "Qoshinning zahirasi tugadi , Xazinadan zang yuboring" deyilgandi. Saroymulkxonim maktubni o'qib bo'lgach uning ortiga shunday deb yozadi " Ulug' amir , zarangingiz tugagan bo'lsa siyosatingiz ham tugadimu?'' - deb yozadi. Shundan so'ng Amir Temur barcha qoreamol va tuyalarning suyaklarini to'plashni buyuradi . To'plangan suyaklarni keraklicha qirqib unga po'latdan muhr bostrtiradi so'ng o'sha pulga askarlar uchun oziq ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfaxon shaxri taslim bo'lgach suyak pullar zar bilan almashtiriladi.

Tarixchilarning aytishicha Amir Temur elchilarni qabul qilish marosimida o'z xotunlarini ham ishtirok etishiga ruhsat bergan . Ispan qiroli Genrix III ning Samarqandaga jo'natgan elchisi Klavihoning aytishicha Amir Temur 1404 -yil 8 - sentiyabr kuni "Diilkusho" bog'ida elchilarni kutub olish marosimida

Saroymulkxonim boshchiligida Amir Temurning barcha xotunlari yuzlariga parda tutgan xolda turishardi , Amir Temurga Ispan qirolining jo'natgan sovg'alari ichida eng ko'p yoqqani qizil movut haquda Saroymulkxonim bilan fikirlashishi uni juda hayratga soladi.

Ushbu marosim haqida Klaviho o'z kitobida yozar ekan Amir Temur ayollariga shunday tarif beradi: Saroymulkxonimning qop-qorq sochlari yelkasiga tushub turardi. Uning boshidagi qalpog'ini ko'plab aslzoda ayollar ko'tarib kelardi . Saroymulkxonimni taxminan 300 nafar ayol kuzatib kelardi. Undan so'ng Tukal xonim va boshqa ayollar kirib kelardi ''deb yozadi.

Manbalarning taxlili shundan dalolat beradiki , so'z ketayotgan davrda davlat boshqaruvi , xususan rasmiy marosimlarda sulolaviy ichki munosabatlar tartibi aniq yo'lga qo'yilgan.

Xulosa: Saroymulkxonimning saroydagi o'rni beqiyos bo'lgan. Buning asl isboti deb shuni aytolamizki Amir Temur o'z nabiralari tabiyasini Saroymulkxonimga topshirganidir. Chunonchi Amir Temur nabiralari bu davlat kelajagi deganidir . Buni yaxshi anglagan Amir Temur shuning uchun ham o'z nabiralarini tarbiyasini Saroymulkxonimga topshirgan. Xulosa so'ngida shuni aytolamizki Saroymulkxonimzamonasining yuksak idrokli , farosatli , tadbirkor, insonparvar, vatanni sevguchi, mamlakatning iqtisodiy , siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayotdan yaxshigina habardor bo'lgan , saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan dono ayol edi.

References:

1. Azamat Ziyo " O'zbek ayollari tarix sahnasida" 18- 33 bet
2. Salohiddin Toshkandiy" Temurnoma" 1990 y.
3. Klavixo "Samarqandga sayohat kundaligi"
4. Ziyouz.com